

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA KOLORITNING BADIY IFODASI

Temirova Nazira Akboyevna

Termiz shahar 26-maktab o'qituvchisi

E-mail: nazirashuxrat1992@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929233>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida Surxon vohasidagi insonlarning turmush tarzi, xarakter xususiyati, insonlarning bir-biriga bo'lgan sof-samimiy munosabatlari, eng og'ir vaziyatlarda ham muloqatning to'g'ri shakllantirilishi kabi fazilatlarni ochib berish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Hikoya, ruhiyat, urf-odat, ichki kechinma, oriyat, andisha, xotira.

Аннотация: Цель данной статьи – раскрыть в произведениях Шукура Холмирзаева образ жизни людей в Сурханском оазисе, черты характера, искренние взаимоотношения между людьми и правильное формирование коммуникации даже в самых сложных ситуациях.

Ключевые слова: Рассказ, психика, традиция, внутренний опыт, ария, мысль, память.

Abstract: This article aims to reveal the lifestyle of people in the Surkhan oasis, character traits, sincere relationships between people, and the correct formation of communication even in the most difficult situations in the works of Shukur Kholmirezayev.

Keywords: Story, psyche, tradition, inner experience, aria, thought, memory.

O'zbek adabiyotidagi badiiy ifodaning xilma-xilligi, badiiy asarning g'oyaviy va badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Milliy kolorit nafaqat rang tasviri sifatida, balki ma'lum bir davr, makon, milliy ruh, personajning ichki kechinmalari va muallifning estetik qarashlarini ifodalashning badiiy vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'zbek nasrining yetakchi namoyandalaridan biri Shukur Xolmirzayev asarlarida koloritdan foydalanish masalalarini o'rganish adabiy tanqidda dolzarb masala hisoblanadi.

Shukur Xolmirzayev yuqori badiiy mahorat bilan o'z asarlarida xalq hayoti, milliy qadriyatlar, inson ruhiyati va tabiiy manzaralarni tasvirlaydi. Yozuvchining hikoyalari va ertaklarida Surxon vohasining o'ziga xos tabiati, mahalliy urf-odatlar, xalq hayoti va insoniy xarakterlar o'ziga xos tarzda ifodalgan. Yozuvchi ijodida kolorit nafaqat tashqi tasvir vositasi, balki personajlarning ma'naviy dunyosini ochib beruvchi, voqealar rivojiga badiiy ta'sir ko'rsatuvchi va milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim poetik element hamdir. Xususan, tabiiy manzaralar va inson tajribasining uyg'un tasviri, mahalliy lahja elementlaridan mohirona foydalanish, etnografik tafsilotlar Shukur Xolmirzayev uslubining o'ziga xosligini belgilaydi.

Ta'kidlash lozimki, mahalliy kolorit badiiy matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirish bilan birga qahramonlarning ichki olamini chuqurroq anglash imkonini beradigan muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Badiiy asarda mahalliy koloritning ta'sirchan chiqishi, avvalo, yozuvchining tabiat va xalq hayotiga qanchalik yaqinligiga bog'liq. Shukur Xolmirzayev ijodida bu holat ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning hikoyalari ko'pincha tog' odamlari, tabiat qo'ynida yashovchi insonlar, ovchilar, sodda va rostgo'y qishloq kishilari tasvirlanadi. Bu esa, tabiiyki, yozuvchining o'z hayotiy tajribasi va fe'l-atvori bilan bevosita bog'liq. Ma'lumki, adibning bolalik yillari Surxondaryoning Boysun tog'lari bag'rida o'tgan. U keyinchalik bu muhitdan uzoqlashgan bo'lsa-da, o'sha yurt manzaralari, tabiat va odamlar obrazi uning ijodida doimiy ilhom manbai bo'lib qolgan.

Yozuvchining o'zi ham suhbatlaridan birida tabiat tasviriga murojaat etish sababini sodda va samimiy tarzda izohlaydi. Uning aytishicha, vaqt o'tishi bilan ovchilikka bo'lgan munosabati o'zgargan, o'zi ovlagan jonivorlarga nisbatan achinish hissi uyg'ongan. Shu orqali u tabiatni o'ziga yaqin, jonli va hamnafas mavjudot sifatida anglay boshlagan. Bu qarash yozuvchi ijodida tabiat va inson o'rtasidagi nozik uyg'unlikni teran ifodalashga zamin yaratadi[1].

Mahalliy kolorit Shukur Xolmirzayevning “Miltiq otildi”, “Bir guzar odamlari”, “Sog'inch”, “Bahor o'tdi” kabi dastlabki hikoyalardan boshlab “Ozodlik” hikoyasigacha izchil davom etadi va uning ijodiy uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda aytish joizki, adabiyotda mahalliy kolorit bilan bir qatorda milliy kolorit tushunchasi ham mavjud. Agar mahalliy kolorit muayyan hududga xos xususiyatlarni ifodalasa, milliy kolorit butun bir

millatning boshqa xalqlardan ajralib turuvchi umumiy belgilarini anglatadi. Shu ma'noda, mahalliy koloritni milliy koloritning tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin.

Yozuvchi tasvirlayotgan hududning koloritini yaratishda uning boshqa joylardan farq qiluvchi jihatlarini aniq ilg'ay olishi muhim. Masalan, Surxon vohasi bilan Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida turmush tarzi, urf-odat va fe'l-atvor jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud. Umarali Normatov ham bu farqlarni ta'kidlab, Surxon vohasi odamlarining soddaroq, bevosita va ortiqcha bezaksiz fikr bildirishga moyilligini qayd etadi[2].

Shukur Xolmirzayev “Miltiq otildi” hikoyasida aynan shu hududiy o'ziga xosliklarni ishonarli badiiy tasvirlaydi. Asarda Farg'ona va Surxondaryo vakillari bo'lgan ikki qahramon misolida ularning yashash tarzi va qarashlaridagi farqlar ochib beriladi. Jumladan, Surxon vohasida ovchilikning muhim o'rin tutishi, mehmonni ovga taklif etish an'anasi mavjudligi ko'rsatiladi. Farg'ona vodiysida esa mehmonnavozlikning yuksak ifodasi sifatida osh tortish odati ustuvor sanaladi.

Natijada, hikoyada mahalliy kolorit tabiiy ravishda milliy kolorit bilan uyg'unlashib ketadi va umumiy o'zbekona fazilatlarni yoritishga xizmat qiladi. Qahramonlarning o'zaro mehr-oqibati, samimiyati va mehmondo'stligi ana shu milliy xarakter belgilarini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev uchun o'z yurtining tabiatini va odamlarini tasvirlash — bu nafaqat badiiy maqsad, balki ichki ehtiyoj, ma'naviy yaqinlik ifodasidir. Shu bois uning asarlaridagi obrazlar ko'pincha umumlashma darajaga ko'tarilib, butun xalq ruhiyatini aks ettira oladi[3].

Yozuvchi ta'kidlaganidek, inson va tabiat o'rtasidagi aloqa uzviydir. Inson – Yerning bir bo'lagi, tabiat esa unga begona emas, balki yaqin va qondosh mavjudlikdir. Shu qarash yozuvchining mahalliy koloritni tasvirlashdagi falsafiy asosini tashkil etadi[4].

Insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklarga munosabat masalasiga qanday yondashish mumkin? Bu qadriyatlarga nisbatan qarashlar o'zgarmay qolganmi yoki zamon bilan birga yangicha mazmun kasb etyaptimi? Folklor an'analari, an'anaviy badiiy shakl va usullarga bo'lgan qiziqishning ortib borishini kuzatar ekanmiz, bu jarayonni kengroq ma'noda – tarixiy-madaniy merosga qaytish, uni qayta anglash ehtiyoji bilan izohlash mumkin. Bunday intilish ortida, shubhasiz, chuqur ichki qonuniyat – milliy o'zlikni anglash va ma'naviy ildizlarga tayanish zarurati mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – Toshkent: Meros, 2004. – B. 66-67.
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – B. 55.
3. Normatov U. Ijod sehri. –T.: “Sharq”, 2007. – 352 b.
4. Xolmirzayev Sh. Hikoyalar. 1-jild. – Toshkent, 2003.